

Raqamli Iqtisodiyot Sharoitida Tadbirkorlik Faoliyatida Kreativlikni O'Rni

Fatilloyev Farrux Farhod o'g'li¹

Annotatsiya: Ushbu maqolada Raqamli iqtisodiyot faoliyatida kreativlikni tutgan o'rni, iqtisodiyotda kreativ fikrlashni shakllantirish mazmuni, Tadbirkorlik faoliyatida kreativ fikrlashning zarurligi va raqamli iqtisodiyot sharoitida kreativ tadbirkorlikni rivojlantirish va bu borada amalda qilinishi lozim bo'lган ishlar haqida qisqacha ma'lumot beilgan.

Kalit so'zlar: kreativ tadbirkorlik, fikrlash, ijodiy jarayon, iqtisodiyot, raqamli iqtisodiyot, kreativlik salohiyati, kreativ shaxs.

Bugungi globallashuv davrida har qaysi jamiyat kreativ shaxslarga ehtiyoj sezadi. Bu albatta tabiiy hol. Chunki raqamli iqtisodiyot sharoitida dunyoda har daqiqada sodir bo'layotgan o'zgarishlar shuni taqozo qilmoqda. Shuning uchun ham kreativ yondashuv va yutuqlar dunyo bo'yab fan va texnologiyadan tortib, falsafa, san'at va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar kabi turli sohalarda insoniyat tamaddunini ilgari surgan. Aynan raqamli iqtisodiyotda sifatli va raqobatbardosh mahsulot yaratish uchun ham kreativlikka tayanamiz. Raqamli iqtisodiyot sharoitida aynan kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishda, xalqaro savdo tashkilotida o'z o'rnini topishi uchun bizga kreativlik, so'ngi ilg'or texnika-texnologiyalar, kreativ marketolog kerak bo'ladi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan Yangi O'zbekistonni barpo etishga kirishganimizga qisqa vaqt bo'lsa hamki katta samarali natija va muvaffaqiyatlarga erishmoqdamiz. Raqamli iqtisodiyot sharoitida kreativ ishlab chiqarish sohasida mutaxasislarni tadbirkorlik bilan shug'ullanishga o'rgatib, kreativ rivojlanish ham Yangi O'zbekistoning yangi strategiyasiga aylanib ulgurdi. Ayniqsa mazkur islohotlarning ta'lim va tarbiya jarayoni bilan uzviy qorishib borayotgani yaxshi samara bermoqda. Chunki, biz o'z oldimizga Yangi O'zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilgan ekanmiz, bunda faqat jadal islohotlar, ilm-ma'rifat va kreativ innovatsion ishlar, start up loyihalar orqali erishamiz. Avvalombor, hozirgi islohotlarning amaliy natijasini, samaradorligini oshirish, joylarda yangidan-yangi tashabbuslarni ilgari surishda aholimizning xususan, yoshlardan shijoatli, kreativ, faol, tashabbuskor bo'lishiga da'vat etishimiz kerak. (Barcha yoshlardan ham o'zbek xalqi va davlat ravnayi yo'lida kamarkasta bo'lib maydonga chiqqa olishmaydi.) Raqamli iqtisodiyot sharoitida tadbirkorlik faoliyatida kreativlikni o'rni har bir mamlakat uchun zarurdir. Tadbirkorlik-bu yaratuvchanlikdir. Uning missiyasi va belgisi paydo bo'layotgan ehtiyojga muvofiq yangi taklif yoki taklifning yangi kreativligini yaratish va u orqali yangi bozor shakllantirishda namoyon bo'ladi. Demak, kreativ tadbirkorlik yangi taklif, ya'ni qiymat yaratib, jamiyat boyligiga boylik qo'shadi. Natijada ularning ishlab chiqaruvchi kuchlari rivojlanadi, ishlab chiqaruvchi kuchlari bilan ishlab chiqarish munosabatlarining o'zaro muvofiqligi yaxshilanib, ishlab chiqarish samaradorligi o'sadi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida kreativ tadbirkorlik tavakalsiz bo'lmaydi. Tadbirkorlik- foyda olish uchun rivojlantirishga tayyorlik va uni tizimli ravishda boshqarish qobiliyatiga egalikdir. Ammo, kundan -kunga aralash modellar paydo bo'lishini ham takidlab o'tishimiz kerak. Masalan, muzeylear davlat tomonidan qisman mablag' bilan ta'minlanadi. Shu bilan birga, muzeyning o'zida kafe, esdalik sovg'alari do'koniga mavjud, u yerda xususiy tadbirlar o'tkaziladi-bularning barchasi tashkilotga qo'shimcha foyda keltiradigan usullardan biridir. Bu faoliyatda ish olib borayotgan tadbirkorlar ham kreativ fikrlash va o'zlarining tashabbuskorliklari bilan sarmoyalarini yanada to'liqlashtiradi. Albatta bu mablag'lar boshqa kreativ loyihalar uchun sarflantiriladi. Ha, bu ham kreativ tadbirkorlikning namunasidir. Zero, kreativ fikringiz- kreativ tadbirkorligingizni rivojlanish omilidir.

¹ Buxoro davlat universiteti Iqtisodiyot va turizm fakulteti 1-bosqich talabasi



“Kreativlik” tushunchasi lotincha so’zdan olingen bo’lib “creatio”-“yaratish” ,”ijodkor” ,”yaratuvchi” degan ma’nolarni anglatadi, lekin mohiyatan bu tushuncha insонning ijodiy qobiliyatining namoyon bo’lishidir.

Kreativlik deganda insонning yangilik yaratish, muammolarni yechishga qaratilgan ijodiy qibiliyati tushiniladi. Uning tag zamirida originallik, amaliylik, noodatiylik va erkinlik yotadi. Shuningdek, kreativ fikrlash muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash, bir nuqtaga turli rakursdan yondashishni anglatadi. Kreativlik shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson tafakkuri, ma’naviyatning ajralmas qismi hisoblanadi, u shaxs ega bo’lgan bilimlarning ko’p qirrali ekanligida emas , balki yangi g’oyalarga intilish , isloh qilish va o’zgartirishda, hayotiy muammolarni yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo’ladi. Ya’ni, berilgan bilimlarni takrorlash orqali kreativlikka erishib bo’lmaydi, kreativ fikrlash jarayonida yangi fikr, yangi g’oyani paydo bo’lishi shartdir. Kreativ fikrlash ham amaliy va yo’naltilgan yondashuv orqali rivojlantirilishi mumkin . Demak , kreativlik -layoqat, jaryon va muhit o’tasidagi o’zaro munosabat bo’lib, u orqali shaxs yoki guruh ushbu ijtimoiy kontekst uchun ham yangi, ham foydali bo’lgan salmoqli mahsulotni yaratilishidir. Shunday ekan raqamli iqtisodiyot sharoitida kreativ tadbirkorlikni kreativ fikrlash orqali rivojlantirish bir tomondan bosh omil bo’lsa, ikkinchi tomondan ahamiyatli masala bo’lib qolaveradi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O’zbekiston strategiyasi. –Toshkent.: O’zbekiston. 2021. –B. 238
2. Csikszentmihalyi, M. Flow: the psychology of optimal experience / Mihaly Csikszentmihalyi.— HARPER & ROW, PUBLISHERS, New York, 1990. – 314 p.
3. Creativity: A Handbook for Teachers. – Singapore: World Scientific Publishing Co. Pte. Ltd., 2007. – 586 p.
4. Hamroyev H. Tadbirkorlik asoslari. - T.: Yangi nashr, 2010. - 360 b.
5. Lerner I.Ya. Didakticheskie osnovы metodov obucheniya. Moskva : Pedagogika, 1981. – S.48.
6. Nazarov T. Maktabgacha yoshdagи bolalarni kreativ fikrlashga o’rgatishning psixologik aspektlari// jur. “Science and Education” Scientific Journal. 2021. (180- 188).
7. Qolqanatov A., Salaydinov B. Madaniyat va san’at sohasida kreativ tadbirkorlik nazariyasi va amaliyotining shakllanishi// jur. O’zDSMI Xabarlari №1. - T.: 2022. (71-73).
8. Runco, A. Creativity Theories and Themes: Research, Development, and Practice Mark / A. Runco. – San Diego: Elsevier Inc., 2007. – 492 p.
9. Runco, M. The Social «Cost» of Working in Groups and Impact of Values and Creativity / M. Runco, N. Hao, J. Acar, M. Tang //
10. Creativity. Theories-Research-Applications. – 3(2). – 2016. – P. 229–243. 10. Salimov B.T., Yusupov M.S., Salimov B.B. Mikroiqtisodiyot. Darslik. -T.: Iqtisodiyot, 2019, - 366 b
11. Tohirov O’.O. Texnologiya o’quv fani davlat ta’lim standarti va o’quv dasturini ta’lim amaliyotiga joriy etish metodikasi. // Metodik tavsyanoma. – Toshkent. : RTM, 2017.-B.65.
12. Оценка роста культурной и креативной индустрий компанией EY, декабрь 2014 года (Measuring Cultural and Creative Growth, EY, Dec 2014)
13. Корецкая Г. Модель Дорожной Карты развития креативной экономики в странах Центральной Азии. - 41 с.
14. Поддержка в разработке и реализации политики в области образовательных инициатив и развития креативной экономики. Рекомендации по развитию креативных индустрий в Узбекистане ТОО “Counterculture Partnership”. Май 2022 год

